

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-sentyabrida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 8193,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 4,8 % ga o'sdi.


2018 yilning yanvar-sentyabr oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4425,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	mlrd.so'm		2017 yil yanvar-sentyabriga nisbatan % da
	2017 yil yanvar-sentyabr	2018 yil yanvar-sentyabr	
I. YaHM	5873,8	8193,9	104,8
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5471,9	7334,3	104,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	401,9	859,6	106,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5471,9	7334,3	104,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	860,4	1193,8	100,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2063,3	3029,7	103,7
sanoat	1602,7	2437,2	103,5
qurilish	460,5	592,5	104,4
Xizmatlar	2548,2	3110,8	106,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	450,3	561,9	105,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	569,9	675,4	112,9
boshqa xizmat tarmoqlari	1527,9	1873,5	104,9

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, sanoat (qurilishni qo'shgan holda) – 103,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi 41,3 %), tashish va saqlash - 112,9 % (9,2 %), xizmatlar – 106,7 % (42,4 %) ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabrda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Qoraqalpogiston Respublikasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 89,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlarning esa, 10,5 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,8 % punktga oshdi va hisobot davrida 16,3 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) tarmoqning ulushi 3,7 % punktga oshdi va 41,3 % ni tashkil etdi. Xizmatlar soxasining YaHM tarkibidagi ulushi 2018 yil yanvar-sentyabrda 42,4 % ni tashkil etdi va 2017 yil mos davri (46,6 %) bilan tasdiqlanganda 4,2 % punktga kamaydi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda):**

2017 yil yanvar-sentyabr



2018 yil yanvar-sentyabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni ko`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,7 % ni (2017 y. – 8,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 9,2 % ni (10,4 %), xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 25,5 % ni (28,0 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda):**

**2017 yil
yanvar-sentyabr**



**2018 yil
yanvar-sentyabr**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig`ma
axborot-tahliliy ishlar bo`limi**

Tel.: (0-361) 222-74-58;

(0-371) 230-82-03